

## MUSIQA MADANIYATI FANINING MAQSAD VA VAZIFALARI

**Berdikulova Mohinur**

*Navoiy davlat universiteti*

*“Musika ta’limi” yo’nalishi*

*3-kurs talabasi*

*E-mail:*

*Ilmiy rahbar: Xodjabayeva Z. P*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada musiqa madaniyati fanining asosiy maqsad va vazifalari yoritiladi. Musika inson hayotida qanday o‘rin tutishi, uning tarbiyaviy, estetik va madaniy ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, fan orqali o‘quvchilarga musiqa san’ati haqida bilim berish, ularning estetik didini shakllantirish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish usullari ham ko‘rib chiqiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *Musiqa madaniyati, san’at, estetik tarbiya, musiqiy ta’lim, madaniyat, ijodiy rivojlanish*

Musiqa inson ruhiyatiga bevosita ta’sir etuvchi san’at turlaridan biridir. U nafaqat badiiy ifoda vositasi, balki tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan kuchli omildir. Shu sababli ta’lim tizimida Musika madaniyati fani alohida o‘rin tutadi. Ushbu fan yosh avlodni san’atni tushunish, milliy va jahon musiqa madaniyatini anglashga o‘rgatadi.

*Musiqa madaniyati fanining asosiy maqsadlari:*

Musiqa madaniyati fanining asosiy maqsadi o‘quvchilarda musiqaga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otish, ularni milliy va jahon musiqa durdonalari bilan tanishtirish hamda san’at orqali estetik tarbiya berishdan iborat. Ushbu maqsad quyidagi jihatlar orqali amalga oshiriladi:

- O‘quvchilarda musiqa madaniyatini shakllantirish;
- Turli janrdagi musiqa asarlarini tushunish va baholash qobiliyatini rivojlantirish;
- O‘zbek milliy musiqasi va jahon musiqa san’ati namunalari bilan tanishtirish;

- O‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va ularni ijodiy faoliyatga jalb etish;

- Musiqa orqali ma’naviy va axloqiy tarbiya berish.

*Musiqa madaniyati fanining vazifalari:*

Fanning maqsadlariga erishish uchun quyidagi vazifalar bajarilishi lozim:

1. Musiqiy didni shakllantirish

O‘quvchilar turli davrlarga oid musiqa asarlarini tinglash orqali ularning san’atga bo‘lgan estetik qarashlari shakllanadi. Shu bilan birga, milliy va zamonaviy musiqa turlari orasidagi bog‘liqlik tushuntiriladi.

2. Musiqiy bilim berish

Dars jarayonida turli cholg‘u asboblari, mashhur bastakorlar, musiqa janrlari va uslublari haqida ma’lumot berish muhim ahamiyatga ega. O‘quvchilarga musiqa nazariyasi asoslarini tushuntirish, nota savodxonligini oshirish va musiqa tarixi bo‘yicha bilim berish fanning asosiy yo‘nalishlaridandir.

3. Ijodiy faoliyatni rivojlantirish

O‘quvchilarni qo‘shiq kuylash, cholg‘u asboblarida ijro etish va musiqa yaratishga rag‘batlantirish fanning muhim vazifalaridan biridir. Bu orqali bolalar nafaqat musiqiy bilimga ega bo‘ladilar, balki o‘z hissiyotlarini ifodalash va ijodiy fikrlashni o‘rganadilar.

4. Jamoaviy ijrochilik madaniyatini shakllantirish

Xor ijrochiligi, ansambl va orkestr bilan ishlash orqali o‘quvchilar jamoada ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar. Jamoaviy ijro etish o‘quvchilarning mas’uliyat hissini oshiradi, muloqot madaniyatini shakllantiradi va san’at orqali birdamlik ruhini uyg‘otadi.

*Musiqa madaniyatining tarixiy ahamiyati*

Musiqa madaniyati insoniyat tarixida muhim rol o‘ynagan. Qadimgi sivilizatsiyalardan tortib, zamonaviy jamiyatgacha bo‘lgan davrda musiqa kishilar hayotida axborot vositasi, marosim va urf-odatlarining ajralmas qismi bo‘lib kelgan. O‘zbek xalqining boy musiqiy merosi, maqom san’ati va xalq qo‘shiqlari ajdodlarimizning madaniy merosining muhim qismi hisoblanadi.

Jahon musiqa san’atida ham turli davrlarda yetakchi uslublar shakllangan. Masalan, Yevropa klassik musiqasida Barokko (I.S. Bax), Klassitsizm (V.A. Motsart, L. Betxoven), Romantizm (F. List, F. Shopen) kabi yo‘nalishlar paydo

bo‘lgan va rivojlangan. Shu bilan birga, Sharq musiqasi ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, uning ohanglari va kuy tuzilishi inson ruhiyatiga chuqur ta’sir qiladi.

*Musiqiy ta’lim va uning jamiyatdagi o‘rni*

Musika madaniyati fani nafaqat san’at sohasidagi bilimlarni o‘rgatish, balki o‘quvchilarning umumiy madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda musika maktablari, bolalar xor jamoalari, ansambllar va orkestrlar orqali yosh avlodni musika san’atiga jalb etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Musiqiy ta’lim inson ruhiyatiga ijobiy ta’sir qilib, ularning estetik didini, nutq madaniyatini va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

**Xulosa:** Musika madaniyati fani nafaqat musika haqidagi bilimlarni o‘rgatish, balki o‘quvchilarni ma’naviy barkamol etib tarbiyalashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu fan orqali o‘quvchilar milliy va umumbashariy qadriyatlarni anglab yetadilar, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradilar va musika san’atidan zavqlanishni o‘rganadilar. Musiqiy ta’lim yosh avlodning didini shakllantirish, ularning madaniy merosga hurmat bilan qarashini ta’minlash va san’atni sevishga o‘rgatishda muhim o‘rin tutadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimova D. Musiqiy didaktika. – Toshkent: Ma’naviyat, 2018.
2. Mamatqulov O. Zamonaviy musiqiy ta’lim metodlari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2023.
3. Rajabov A. O‘zbek musika tarixi. – Toshkent: Sharq, 2020.
4. Sagdullayeva D. Bolalar uchun musiqiy ta’lim metodikasi. – Toshkent: Fan, 2019.
5. Xodjayeva G. Musika madaniyati asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2015.
6. Yo‘ldoshev E. Musika san’ati va tarbiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2012, B. 116–117.